



International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies

International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies is a double-blind peer-reviewed, open-access journal published to reach excellence on the scope. It considers scholarly, research-based articles on all aspects of economics, finance and accounting. As an international congress aimed at facilitating the global exchange of education theory, contributions from different educational systems and cultures are encouraged. It aims to provide a forum for all researchers, educators, educational policy-makers and planners to exchange invaluable ideas and resources.

Moliyaviy Natijalar Auditi

Turumova Dildora Abdumannonovna

Jizzax politexnika instituti "Iqtisodiyot va menejment" kafedrası o'qituvchisi
dildoraturumova1985@gmail.com

Ubaydullayeva Nozima

Jizzax politexnika instituti talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqola auditning xalqaro standartlari asosida moliyaviy hisobot auditi jarayonining ketma-ketlik asosida bajariladigan ishlarini, ya'ni uni rejalashtirishdan toki auditorlik hisobot tuzish va auditorlik xulosani rasmiylashtirishgacha bo'lgan auditorlik amallarini bajarishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: moliyaviy hisobot auditing maqsadi va uning asosiy tammoyilari; moliyaviy hisobot auditini o'tkazish usullari.

KIRISH

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyati samaradorligini ta'minlash maqsadida ishonchli va to'liq axborotlarni tezkorlik bilan olish hamda ulardan samarali foydalanish muhim iqtisodiy qarorlar qabul qilishda alohida ahamiyat kasb etadi. Bu o'z navabtda, moliyaviy hisobotlarni keltirilgan ma'lumotlar iqtisodiy mahiyatining aniq va tushunarli bo'lishini hamda uning korxonada faoliyatidagi rolini, baholash usullarini va boshqa hisobot ma'lumotlarining bir-biri bilan mutanosibligini ta'minlash kabi vazifalarni talab qiladi. Moliyaviy hisobot ma'lumotlarining ishonchligini tasdiqlash esa sifatli auditorlik hisobotlari va xulosalari orqali amalga oshirilishi davr talabi hisoblanadi.

Moliya natijalari auditi — tashkilotning moliyaviy hisobotlarini, ularning to'g'riligini hamda moliyaviy faoliyatini baholash jarayonidir. Bu audit turi tashkilotning moliyaviy ma'lumotlarining ishonchligini ta'minlash, ichki nazorat tizimini baholash va moliyaviy rejalarni ishlab chiqishda yordam berish maqsadida amalga oshiriladi. Moliya natijalari auditi tashkilotlar uchun muhim ahamiyatga ega, chunki bu jarayon orqali ular o'z moliyaviy holatini tahlil qilib, kelajakdagi rivojlanish strategiyalarini belgilashlari mumkin.

Moliya natijalari auditi — bu tashkilotning moliya hisobotlari va operatsiyalarining aniqligini va ishonchligini ta'minlash uchun o'tkaziladigan mustaqil tekshiruvdir. Ushbu auditorlik jarayoni quyidagi asosiy maqsadlarni ko'zlaydi:

1. Ishonchlilikni ta'minlash: Tashkilotning moliya hisobotlari aniq va to'liq ekanligini tasdiqlash.
2. Ichki nazorat tizimini baholash: Tashkilot ichidagi nazorat mexanizmlarining samaradorligini

tahlil qilish.

3. Normativ hujjatlarga muvofiqlik: Davlat qonunlari va xalqaro standartlarga amal qilinishini tekshirish.
4. Moliyaviy ko'rsatkichlarni tahlil qilish: Tashkilotning moliya ko'rsatkichlarini o'rganib chiqish va ularning samaradorligini baholash.
5. Moliya natijalari auditi quyidagi bosqichlardan iborat:
6. Rejalashtirish: Auditorlik jarayonining asosiy maqsadlari belgilab olinadi, auditorlik jamoasi tuziladi va ish rejalashtiriladi.
7. Tayyorgarlik: Tashkilotdan zarur hujjatlar to'planadi, ichki nazorat tizimi o'rganiladi.
8. Tekshirish: Auditoriyarim tomonidan hujjatlar, hisoblar va boshqa materiallar tekshiriladi hamda dalillar to'planadi.
9. Tahlil qilish: Olingan ma'lumotlar tahlil qilinadi va xulosalar chiqariladi.
10. Hisobot tayyorlash: Auditorlik xulosalari tayyorlanib, rahbariyatga taqdim etiladi.
11. Takliflar berish: Audit natijalariga asoslanib, takliflar ishlab chiqiladi.

Moliya natijalari auditi quyidagi jihatlarida muhim ahamiyatga ega:

- Iшонch hosil qilish: Auditorlik jarayoni orqali investorlar, kreditorlar va boshqa manfaatdor tomonlarga tashkilotning moliya hisobotlariga bo'lgan ishonchni oshiradi.
- Raqobatbardoshlikni oshirish: Tahliliy yondoshuv orqali tashkilot o'z kuchli va zaif tomonlarini aniqlab olishi mumkin.
- Xatarlarni kamaytirish: Ichki nazorat tizimining samaradorligini oshirib, potentsial firibgarlik yoki boshqa xatarlarni kamaytirishga yordam beradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bugungi kunda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliya-xo'jalik faoliyatining moliyaviy hisobotlarda aks ettirilgan natijalarni baholash masalalariga yangicha, zamonaviy yondashuv uslublari juda ham zarur. Bu mavjud nazariy, tashkiliy-huquqiy asoslari va amaliy muammolar bo'yicha auditorlik faoliyatining sifatini oshirish, hamda respublikamizda tashqi va ichki audit tekshuruvlarini zamonaviy darajada tashkil qilish va uni rivojlantirish borasida chuqur tadqiqotlar o'lkazishni taqozo etmoqda. Bir tomondan auditorlik faoliyatining xalqaro tajribalariga tizimli yondashish, ularni chuqur tahlil qilish, boshqa tomondan bozor iqtisodiyotining jahon ham jamiyatida e'tirof etilgan o'zbek modelining xususiyatlari to'grisidagi bilimlarimizdan maksimal foydalangan holda, iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida moliyaviy hisobot axborotlaridan foydalanuvchilar uchun nazoratning maxsus tashkiliy shakli-auditni istiqbolli rivojlantirish zarurligi ayon bo'lmoqda.

Auditorlik faoliyatini rivojlantirish iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida nihoyatda muhim hisoblanadi. Auditorlik tekshiruvda asosiy e'tibor moliyaviy hisobot auditiga qaratilib, bu o'z navbatida moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarga ishonchli xulosa berishda o'z aksini topadi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda moliyaviy hisobot auditing qonuniy-me'yoriy asoslari tarkibida auditing xalqaro standartlari muhim o'rin tutib, u ushbu kasb bilan shug'ullanishning muayyan me'yorlarini belgilab beradi. Shu boisdan ham respublikamizda auditorlik faoliyatining milliy tizimini ishlab chiqishda xalqaro audit standartlriga taytanilmoqda.

Moliyaviy hisobot auditi maqsadlarini tushunish realizatsiya qilinishi auditorning kasbiy fikrlarini ifodalash uchun yetarlicha isbot yig'ish imkonini beruvchi auditorlik amallari metodik asoslari shakllanishini ta'minlaydi. "Moliyaviy hisobot auditing maqsadi va uni tartibga soluvchi asosiy tamoyillar" nomli 200-son xalqaro audit standartiga muvofiq moliyaviy hisobot

auditioning maqsadi: auditorlarga moliyaviy hisobot barcha axamiyatli javxalari bo'yicha moliyaviy hisobotni taqdim etishga oid belgilangan kontseptual asosga muvofiq tayyorlanganligi xaqida o'z fikrini bildirish uchun imkoniyat yaratishdir.

XULOSA

Audit natijalarini umumlashtirish bilan birgalikda auditor, auditorlik tekshiruvini yakunlash jarayonida audit dasturining barcha bandlari bajarilganligini tekshirishi lozim. Auditorlik xulosasi auditor (auditorlar), auditorlik tashkilotining raxbari tomonidan imzolangan va auditorlik tashiloti muhri bilan tasdiqlangan bo'lishi kerar. Auditorlik tashkiloti tomonidan ishlab chiqiladigan auditorlik xulosasini tayyorlash ishlarida xalqaro auditorlik standartlari (XAS) qoidalarining talablarini inobatga olishi zarur.

Moliya natijalari auditi — bu har qanday tashkilot uchun zarur bo'lgan jarayon bo'lib, u nafaqat moliya hisobotlarini yaxshilaydi balki ichki nazorat mexanizmlarini mustahkamlaydi hamda kelajakdagi muvaffaqiyatli rivojlanishni ta'minlaydi. Bunday audit orqali tashkilot o'z faoliyatini yanada samarali olib borishi mumkinligini anglaydi va investorlar hamda manfaatdor tomonlarga ishonchli axborotni taqdim etishi mumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Quziyev I.N. Auditorlik xisobotlarini tuzish va ularni umumlashtirish nazaryasi va metodologik masalalar. Monografiya. –T “Iqtisod-Moliya”, 2015 yil
2. Meliyev I.I. Auditorlik tekshiruvini rajalashtirish va o'tkazishni takomillashtirish; iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun dis.avtoref. 2019
3. <https://lex.uz> - normativ-huquqiy hujjatlar rasmiy qidiruv sayti.
4. <https://norma.uz> -normativ-huquqiy hujjatlar rasmiy qidiruv sayti.
5. <https://ifac.org> - Xalqaro buxgalterlar federatsiyasi rasmiy sayti.
6. <https://naab.uz> - O'zbekiston Respublikasi Buxgalterlar va auditorlar milli asociatsiyasining rasmiy sayti.
7. Abdumannonovna, T. D. (2024). EXTERNAL AUDITORS AND THEIR LIABILITY TO THIRD PARTIES. *Gospodarka i Innowacje.*, 44, 71-75.
8. Abdumannonovna, T. D. (2024). FRAUD DETECTION IN AN AUDIT. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, 3(1), 136-140.
9. Abdumannonovna, T. D. (2024). IMPORTANCE AND ROLE OF INTERNAL AUDIT IN ENTERPRISES. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, 3(1), 6-9.
10. Abdumannonovna, T. D. (2024). LICENSING PROCEDURE OF AUDITING ACTIVITIES IN UZBEKISTAN AND CURRENT RESULTS. *Gospodarka i Innowacje.*, 44, 35-40.
11. Abdumannonovna, T. D. (2024). Methods of Obtaining Audit Evidence. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 3(2), 221-226.
12. Abdumannonovna, T. D. (2024). NEW UZBEKISTAN AND THE MUTUAL INTERESTS OF THE " BIG FOUR " INTERNATIONAL AUDITING COMPANIES. *Miasto Przyszłości*, 45, 600-605.
13. Abdumannonovna, T. D. (2024). Purpose, Tasks, Necessity of Audit in Uzbekistan. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 2(2), 89-92.
14. Abdumannonovna, T. D. (2024). Relationship With Auditing Standards in Controlling the Quality of Auditor's Work. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 3(2), 998-1003.

15. Abdumannonovna, T. D. (2024). Respublikamizda auditorlarni sertifikatlashtirish va malakasini oshirishdagi natijalarning samarasi. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 682-687.
16. Abdumannonovna, T. D. (2024). STUDYING THE COMPANY'S ACTIVITIES AND ACCOUNTING DURING THE AUDITOR'S INSPECTION. *EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY*, 4(2), 21-27.
17. Abdumannonovna, T. D. (2024). THE AUDITOR'S PROFESSIONAL ETHICS ARE THE BASIS OF THE AUDITOR'S ACTIVITY. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, 3(1), 225-229.
18. Abdumannonovna, T. D. (2024). The Document Presented by the Auditor is" Audit Report and its Contents". *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 3(2), 991-997.